

ONA TILINI BOYITISHDA MILLIY QADRIYATLAR TIMSOLLARI

Mehribon Qo'shnazarova
UrDU akademik litseyi o'qituvchisi

Akbar Otaboyev
UrDU magistri(Urganch, O'zbekiston)

Foydasiz so'zlamas qaysi til,
Ona tili bo'lgay o'shal til,ona til.
(A.Otin)

Annotatsiya

Ushbu maqola ona tili milliy ma'naviyat va mafkura, milliy ruh, madaniyat va qadriyatlarning ulkan xazinasi ekanligini yoritishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: milliy ruh,milliy mafkura,milliy madaniyat,milliy qadriyat.

Ona tili – milliy ma'naviyat va mafkura, milliy ruh, madaniyat va qadriyatlarning ulkan xazinasi.Ona tili – millat tafakkurini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va ifodalovchi eng asosiy vosita. Vatanga, xalqqa muhabbat o'z ona tilingga, milliy qadriyatlarning bo'lgan muhabbatdan boshlanadi. Ona tilimizning uzoq o'tmishiga bir nazar tashlaylik... Qoraxoni podshohlar uni "xoqoniya tili" deyishgan. Buyuk tilshunos Mahmud Qoshg'ariy bu tilni uchqur tulporga o'xshatgan. U arab tilida turkiy so'zlar devonini tuzib, butun dunyoni turkiy tilni o'rganishga da'vat etgan. Yusuf Xos Hojib bu tilni tog' o'husiga qiyos qilgan. Faxriddin Muborakshoh esa :“Arabchadan so'ng turkiy tildan boshqa yaxshiroq va salobatliroq til yo'qdir”, - deydi. Nosriddin Burhonuddin Rabg'uziy va Alouddin G'aybiy uning nihoyatda qadimiyligi, hattoki Odam Ato ham bu tilda so'zlaganini rivoyat qilganlar. Sohibqiron Temur turkiy til obro'sini osmon qadar ko'taradi, milliy shoirlarga homiylik qildi. O'sha davr shoiri Haydar Xorazmiy bundan faxrlanib ushbu fikrlarni yozgandi:

Turk zuhuridir ochunda bu kun,

Boshla ulug'yir ila turkona uchun.

Buyuk adib, jadidchilik harakatining namoyandalaridan biri Abdulla Avloniy o'z ona tilining ahvoliga achinib shunday degandi: “Hifzi lison” deb har bir millat o'z ona tili va adabiyotini saqlamagini aytilar. Har bir millatning dunyo borlig'ini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur. Hayhot! Biz Turkistonliklar, milliy tilni saqlamak bir tarafda tursun, kundan kun unutmak va yo'qotmakdardurmiz.Tilimizning yarmiga arabiy, forsiy ulangani kamlik qilub, bir chetiga rus tilini ham yopishtirmakdardurmiz. Zig'ir yog'i solub,moshkichiri kabi qilub,aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadur... Bobolarimizga yetishg'on va yaragan muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas... Payg'ambarimiz:“Erlarda jamol lison va tildir”-demishlar. Men o'zbek tilini oshiq Majnundek sevaman. Tilim u bilan chiqqan, yuragimni uning so'zlari bilan sharhlayman. U qadim va qutlug' Vatanimning muborak ovozi, Odam Ato zamonidan qolgan nido. Bu sehrli nafas necha-necha botirlarni ruhlantirgan, qancha-qancha shoirlar qalbini o'tlarga yoqmagan?! “Afrosiyob turk ta'rifi bilan dunyoga dong taratgan Alp Erto'nga Erga ot andoqqi ko'kka oy” O'g'uzxonning “Men senlarga bo'ldim xoqon” degan tabarruk gaplari ming yilliklardan beri hali ham

barchaga tushunarli bo'lib keladi. M. Qoshg'ariy bu tilni uchqur tulporga o'xshatsa, Yu. X. Hojib bu tilni tog' ohusiga qiyos qilgandi.

Milliy mafkura ko'p millatli O'zbekiston xalqining ezgu go'ya – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, barpo etish yo'lidagi asriy orzu-intilishlari, hayotiy ideallarini o'zida aks ettiradi. Milliy g'oya va istiqlool mafkurasini Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g'oyalarning ma'no-mazmunini teran anglab yetishga xizmat qiladi. Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati tili va dinidan qat'iy nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt- saodati uchun doimo mas'uliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'alarimizga munosib bo'lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchanlik ishlariga davat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish-milliy istiqlool mafkurasining bosh maqsadidir.

Milliy istiqlool g'oyasini yangi pedagogik texnologiya usullari asosida o'quvchilar ongiga ona tili darslarida singdirish ustozlardan juda katta mas'uliyatni talab qiladi.

Mavzu: "Ergashgan qo'shma gaplar omonomiyasi va sinonomiyasi"

Maqsad: a) o'quvchilarga qo'shma gaplarning bir-biridan farqi, ergashgan qo'shma gaplar omonomiyasi, sinonomiyasi haqida ma'lumot berish;

b) o'quvchilarni o'zbek tilini, Ona Vatanimizni, mashhur bobokalonlarimizni sevish va qadrlash, ularning milliy qadriyatlarini ulug'lash ruhida tarbiyalash;

s) o'quvchilarni adabiy til qoidalari asosida mustaqil fikrlashlarini, dunyoqarashini, tafakkurini rivojlantirish.

O'quvchilardan o'tilgan mavzuni so'rab olish uchun uzoq va yaqin o'tilgan mavzularni takrorlash maqsadida yozma bahs, ya'ni yozma savol-javob usulidan foydalanaman. Buning uchun o'quvchilarning o'rnini o'zgartiramiz. Ularni auditoriyada to'rtburchak shaklida o'tirg'izamiz.

Qarama-qarshi tomondagi o'quvchilar bir-birlari bilan raqobatdosh hisoblanadilar va "Adiblar tilga kirsin" mashqini yozma dialog shaklida olib boradilar. Bu mashq mavzusi "Borlig'imsan, Ona tilim!" mavzusiga qaratilgan bo'ladi. O'quvchilar qog'ozga xohlagan adib nomini yozadilar va o'z raqobatdoshlariga olib borib beradilar. Raqobatdoshlar shu adib qalamiga tegishli ona tilidagi hikmatli so'zlarni o'ylab topib yozishlari kerak. Raqobatdoshlar ham xuddi shu tartibda mashqni davom ettiradilar. Va shu hikmatli so'zning tuzilishiga ko'ra turini aniqlash ham zarur bo'ladi. Bu esa o'quvchilarning uzoq va yaqin o'tilgan mavzulardan olgan bilimlarini mustahkamlaydi. Bu mashq 3-4 marta takrorlanadi. O'quvchilar ishidan namuna:

"Adiblar tilga kirsin..."

1-o'quvchi savoli:

"M.Qoshg'ariy?"

Raqobatdoshining javobi:

Javob: M. Qoshg'ariy turk tilining nozik bilimdoni va tolmas targ'ibotchisidir. "U arab tili bilan ikki uloqcha ot singari teng poyga qilib, o'zib borayotgan turk tilini" ko'klarga ko'taradi. Adib turkiy tilini uchqur tulporga o'xshatadi. Bu aforizm tuzilishiga ko'ra sodda yoyiq gap.

2-o'quvchi savoli:

"Y.X.Hojib?"

Raqobatdoshining javobi:

Bu turkcha qo'shiqlar tuzattim senga.

O'qurda unutma, duo qil menga

Bu aforizm bog'lovchisiz qo'shma gap. Uchta sodda gaplar ohang orqali bog'langan.

3-o'quvchi savoli:

"A. Yugnakiy?"

Raqobatdoshining javobi:

Tumami erur Qoshg'ariy til bila,

Aytmiş adib riqqatil dil bila.

Bu aforizm bog'lovchisiz qo'shma gap.

4-o'quvchi savoli:" Y.X.Hojib?"

Raqobatdoshining javobi:

Kiyik tagi ko'rdim bu turk so'zu

Ani aqru tutdim yaqurdim ara.

Adib turkiy tilni tog' kiyigiga o'xshatadi, bu aforizm bog'lovchisiz qo'shma gap.

5-o'quvchi savoli:" Faxriddin Muborakshox?"

Raqobatdoshining javobi:

Arabchadan so'ng turkiy tildan boshqa yaxshiroq va savlatliroq til yo'qdir.

Bu aforizm sodda yoyiq gap.

6-o'quvchi savoli:"H.Xorazmiy?"

Raqobatdoshining javobi:

Turk zuxuridur ochunda bu kun,

Boshla ulug' yir ila turkona uchun!

Bu aforizm bog'lovchisiz qo'shma gap.

7-o'quvchi savoli:" A.Navoiy?"

Raqobatdoshining javobi:

Turk nazmida chu men tortib alam,

Ayladim ul mamlakatni yakqalam

Bu aforizm ravish ergash gapli qo'shma gap. Bu misralarda turk tilida ijod qilib, turkiy qabila va elatlarni birlashtirganligini nazarda tutgan. O'quvchilar ishi yig'ib olinib, baholanadi.

Yangi mavzuni "Vatan – sajdagoh kabi muqaddas", "Tarix sahifalarini varaqlaganda" mavzularidagi 7 daqiqalik videofilmni namoyish qilish bilan boshlayman.Shart shunday: "Namoyish qilingan matnga tatabbu tarzida matn yaratish va gaplarni tuzilishiga ko'ra tahlil qilish". Bu shartdan oldin o'quvchilarning soniga qarab, 6 kishidan yoki 4 kishidan iborat 4 guruhga: "Navoiy", "Qoshg'ariy", "Xos Hojib", "Yugnakiy" kabi tilshunos olimlar nomi yozilgan kartochkalar orqali bo'lib olaman va guruh vakillarini "Bahs klubi" shaklida doira-doira qilib o'tirib olishlarini so'rayman. Guruh sardori tanlanadi va u o'quvchi har bir a'zosini, har bir ishtiroki uchun baholab boradi. Men o'quvchilar uchun "Ko'hna Urganch" videofilmini tanladim.O'quvchilar shu videofilm asosida shunga o'xshash "Xazorasp qal'asi", "Ellikqal'a", "Yonboshqal'a", "Ayozaqal'a"lar haqidagi afsonalarning mazmunini berilgan oq qog'ozlarga eslab yozadilar va 6-8 gapdan iborat matn yaratadilar . Har bir guruh sardori guruh a'zolari orasidan eng yaxshi yaratilgan matnni o'qib eshittiradi. Guruh a'zolari esa gaplarni tahlil qilishda qatnashadilar. Guruhlararo raqobat tashkil qilinadi, ular bir-birlarini to'ldiradilar, tanqid qiladilar va savollar beradilar.Ayniqsa, matnlardagi ergash gaplar tahliliga, ularning bir-biriga yaqin ma'noli bo'lishi yoki omonimligiga e'tibor qaratiladi. O'quvchilarni o'z matnlarida uchragan ergash gaplarning omonimlarini va sinonimlarini topishga undaymiz. Masalan: "Xazorasp qal'asi" matnini o'quvchilar shu gap bilan yakunlashgan:

Kim Ona Vatanining qadriga yetsa, u haqiqiy insondir. Ularga shu gapdagi ergash gapning omonimlari qilib boshqa turdagi ergash gaplar hosil qilish topshirig'i beriladi.

O'quvchilarning javobi:

1. Kim Ona Vatanning qadriga etsa, uning xalq oldida e'tibori yuqori bo'ladi. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap.
2. Kim Ona Vatanning qadriga etsa, uni hamma hurmat qiladi. Vositasiz to'ldiruvchili ergash gapli qo'shma gap.
3. Kim Ona Vatanning qadriga yetsa, biz ham u bilan doimo faxrlanamiz. Vositali to'ldiruvchili ergashgan qo'shma gap.

Bu gaplar mazmunan bir-biriga ma'nodosh, ergash gapli qo'shma gaplar sinonimiyasidir. Darsning asosiy maqsadi ana shu o'rinda yechiladi. O'quvchilar ergash gapli qo'shma gaplarning bir-biridan farqini aniq bilib oladilar va o'z Ona Vatanlarini qay darajada sevishlarini isbot qiladilar.

2-shartimiz: "Tugun asosida rivoyatni davom ettirish" mashqini bajartirish uchun har guruhga bittadan taxtacha va ko'k, oq, qizil qalamlar beriladi. Taxtachaga esa bir jumla yozilgan:

1-guruh taxtachasi:

"Bir necha hurmatli Ayyub ilohiy sirlar kayfidan mast bo'lib, toat- ibodat qilib, shamdek ko'zidan yoshlar to'kib o'ltirar edi. Shu kecha bir kisovur uning uyiga lahm kovlay boshladi...."

2-guruhga taxtachasi:

"Saxiy bir podshohning sevgan bir quli bo'lib, bakovullik qilir edi. Kunlardan bir kuni uning bazmida ovqat vaqtida podshohning ham ishtahasi yaxshi bo'lib turganda, falokat yuz berib, bir tosh qulning oyog'iga urildi, shunda issiq oshni podshohning boshiga to'kib yubordi...."

3-guruh taxtachasi:

"Iskandar o'z ixtiyori bilan shohlikni tark etgan, faqat, eski qabrlarda istiqomat qiladigan bir darvesh borligini eshitib, uni olib kelishlarini buyuribdi.

U bosh yalang, oyoq yalang yoqa yirtig'idan ko'kraklari ham ochiq, ikki qo'lida ikkita bosh chanog'ini ko'targan holda keldi..."

4-guruh taxtachasi:

"Xat tashuvchi bir qush-tez uchar bir kabutar bor edi, u qanot qoqib, parvoz qilganda bir tosh masofani dam olmay bosib o'tardi. U bechora bir shohning tuzog'iga ilinib, qanot quyrug'iga ko'p shikast yedi..."

Men bu hikoyatlarni bobokalonimiz A.Navoiyning "Hayrat ul- abror" va "Saddi Iskandariy" dostonlaridan tanladim. Negaki o'zbek tilini yo'qolib ketishidan saqlab qolib, uning boy va go'zal til ekanligini ham "Muhokamat ul- lug'atayn" asari orqali nazariy jihatdan asoslab, "Xazoyin ul-maoniy", "Xamsa" asarlari bilan amaliy jihatdan isbotlab bergan, turkiy til bilan bu mamlakatni yaqqalam qilib, yer yuziga turk qavmini, turkiy tilning shuhratini tanitgan yagona allomamizdir. Uning har bir kichik she'ridan tortib, yirik asarlari, hikoyalarida milliy o'zligimizni, milliy qadriyatlarimizni ko'ramiz, Ona Vatanimizni sevib qadrlashni o'rganamiz. 10 daqiqadan keyin guruhlarining ishi tekshiriladi va matnlardagi ergashgan qo'shma gaplar tahlili ular omonimiyasi so'raladi. (og'zaki)


3-shartimiz: "Qarorlar shajarasi". Bu usul qiyin va turlicha vaziyatlarda qarorlar qabul qilishni oqillashtiruvchi texnikadir.

Mashqni o'tkazish usuli:

1. Bir muammo belgilanadi, guruhlar uchun jadval tayyorlanadi.
2. O'quvchilar gap borayotgan muammo bilan bog'liq realliklarni bilib oladilar.

3. 4-6 kishilik guruhlariga to'ldirish uchun jadval va markerlar beriladi. Ularga mashq bajarish uchun (10-20 daqiqa) beriladi.
4. Qatnashuvchilar har bir variantning afzalliklari va nuqsonlarini yozadilar va keyinchalik muammoni hal qilish usuli to'g'risida qaror qabul qiladilar.
5. Ish yakunida guruh vakillari navbati bilan o'z guruhlari ishining natijasini qiyoslaydilar. Guruhlarni bir xil qarorga olib kelgan sabablarni aytib beradi (olib boruvchi), savollarga javob beradi.

MUAMMO



Bu ilg'or pedagogik texnologiya usullari, tafakkur matnlari orqali ona tili darsida:

1. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarni zeriktirmasdan bir masaladan tezlik bilan ikkinchi masalani yechishga undaymiz. Ular bir bog'dan ikkinchi bog'ga o'tib, turli hidli gullarni hidlagandek bo'ladilar.
2. O'quvchilarni yangi mavzu va o'tilganlarni takrorlash orqali Milliy qadriyatlarimizni, Ona tilimiz va Ona Vatanimizni yan-da ko'proq sevishga, bobolarimiz ma'naviy merosini qadrlab, sevib, ular o'gitlariga rioya qilishga, kelajakda komil inson bo'lib yetishga chorlaymiz.
3. O'quvchilarning tafakkurini rivojlantiramiz, bir-birini tanqid qilishga, javoblarni to'ldirishga o'rgatamiz, raqobatlashtiramiz.
4. Muammolarni taqqoslab echishga o'rgatamiz.
5. Ijodiy tafakkur qobiliyatini, mustaqil fikrlash imkoniyatlarini rivojlantiramiz, to'g'ri va ravon bayon qilish ko'nikmalarini shakllantiramiz, savodxonligini oshiramiz.
6. O'quvchilarni o'z ustida mustaqil ishlashga o'rgatamiz. Buning uchun o'quvchilarga o'zlari sevgan buyuk allomalarning suratini oq qog'ozga kleylab, rangli kartochka tayyorlab kelish topshiriladi. Bu tayyor kartochkalarga esa darsda shu adibning o'zbek tili. Ona Vatan xaqidagi hikmatli so'zlari she'rlari bilan to'ldirish topshirig'i beriladi. Tayyor namunali kartochkalar har bir o'quvchining o'z ustida ishlash ijodiy papkasiga solib olib qo'yiladi yoki allomalarning surati tushirilgan hayoti, ijodi, matn qilib berilgan tayyor kartochkalardan foydalanish:
7. O'quvchini shu alloma tashqi ko'rinishi bilan; 2. Uning hayoti, ijodi bilan tanishtiradi; Bu matn turlari orqali o'quvchilardagi buyuk avlod

ajdodlarimiz bilan faxrlanish, sevish tuyg'ularini oshiramiz.

O'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi faqat o'zbeklar uchungina emas, balki Respublikamizda yashayotgan barcha elat vakillari uchun ham katta ahamiyatga ega sanaladi. Agar Davlat tili haqidagi Qonun bandlarining o'zga millat va elat vakillariga singdira olmasak, o'zbek tilining millatlararo muomala tili mavqeyiga ko'tarilishi qiyin. Mustaqillik sharafati bilan biz jahon hamjamiyatiga a'zo bo'ldik. Jahonda millatlararo muomala vositasiga ingliz tilidir. Mamlakatimizga turli maqsadlar bilan kirib kelayotgan xorijiy davlat fuqarolari tobora ko'paymoqda. Bu, tabiiy ravishda, muomala jarayonida asosiy mavqe qozonib, millatlararo muomala vositasiga aylanishi ehtimoldan holi emas. Biz, yoshlar, ingliz, fransuz va yana juda ko'p chet tillarini bilishimiz kerak. Biroq inson ona tilini tafakkur qiladi, ona tilida yig'laydi. Shunday ekan, odam o'z ona tilini sevishi, qadriga yetishi kerak. Negaki, O'. Hoshimov aytganidek: "O'z onasini sevmagan odam qo'shni kampirni yaxshi ko'raman desa, ishonmayman. O'z ona tilini, madaniyatini hurmat qilaman desa ishonmayman. Onaday aziz bo'lgani uchun tilimizni ona tilim deymiz. O'zbek tili va Vatanida Davlat tili maqomida mustahkam turishi uchun ham jahon xalqlari ichida mustahkam o'zin egallashi lozim. Buning uchun, avvalo, davlat tili siyosatini "kelajagi buyuk davlat" nuqtayi nazarini anglab yetishi zarur. O'zbek tili Davlat tili maqomida ustuvor turishi uchun uni jahon xalqlariga tanitish lozim, jahon xalqlari ham uni tan olishi muhimdir. Hozirgacha xorijdan kelgan mutaxassislar O'zbekistonni, asosan, rus tili orqali kashf etmoqda. Xorijdan kelgan mehmonlar O'zbekistonni o'zbek tili orqali tanishi, o'zbek tili o'rganib ketishi yoki kelib o'rganishi bizning davlat siyosatimizga bog'liq. Vatanimizni va jahon mamlakatlarini ona tilimizni xorijiy til sifatida o'qitilishiga endilikda davlat miqiyosida alohida e'tibor bermog'imiz lozim. Bu ulkan yo'nalishning tizimi, dasturlari, qo'llanmalari, tegishli lug'atlari ishlab chiqilishi hozirgi dolzarb vositalardir. Ona tilimizning jahon mamlakatlarini o'qitilishi jahonning mamlakatimizga e'tibori kuchaytiradi va ayni paytda Vatanimizning jahon hamjamiyatidagi mavqeyini oshiradi. Inshoolloh, shunday bo'lajak!